



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Dastlabki ma'lumotlar

Respublika bo'yicha 2022-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1975,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **11,0 %** ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **205,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **74,8**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1769,7** mlrd. so'mni (**6,5 %** ga o'sdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **203,6** mlrd. so'mni (**11,8 %** ga o'sdi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



UMUMIY MA'LUMOT

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1975,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **111,0%** ni tashkil etdi.



Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida Nukus shahri va tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **89,6 %** va yirik korxonalar hissasiga **10,4 %** to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH


Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri **29,0%** ulush bilan **573,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH


Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mo'ynoq tumani **0,9 %** ulush bilan **17,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliko'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'iro't Mo'ynoq Nukus Taxiato'sh Taxtako'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, **1769,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **106,5%** ga o'sgan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **89,6%** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Qorao'zak (99,7 %), Kegeyli (99,5 %), Qonliko'l (99,6 %), Mo'ynoq (99,2 %), Taxtako'pir (99,5 %), Bo'zatov (99,6 %), Nukus (99,3 %) va Shumanay tumanlarida (99,4 %) yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-mart oylarida nisbatan respublikaning Bo'zatov tumanidan tashqari barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining sur'atlari kuzatilib, nisbatan Nukus shahri (120,7 %), Xo'jayli (108,9 %), To'rtko'l (115,1 %), Chimboy (107,8 %) va Shumanay (109,0 %), tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 975,5	111,0	205,8	174,8	1 769,7	106,5
Nukus shahri	573,2	120,7	168,0	217,2	405,2	101,9
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	139,0	104,9	4,0	59,5	135,0	107,4
Beruniy	157,7	105,3	5,8	113,4	151,9	105,0
Bo'zatov	19,5	105,3	0,1	65,3	19,4	105,5
Qonliko'l	55,8	105,1	0,2	247,7	55,6	104,9
Qorao'zak	81,3	105,0	0,2	56,0	81,1	105,3
Kegeyli	69,8	105,6	0,4	146,5	69,4	105,4
Qo'ng'iro't	136,5	106,6	4,5	82,1	132,0	107,7
Mo'ynoq	17,9	105,1	0,1	132,6	17,7	104,9
Nukus	46,4	107,6	0,3	117,1	46,1	107,5
Taxiatosh	50,6	107,5	5,2	91,4	45,4	109,7
Taxtakopir	55,0	104,7	0,3	68,5	54,7	105,0
To'rtko'l	192,1	115,1	7,2	100,4	184,9	115,8
Xo'jayli	158,6	108,9	3,8	124,5	154,8	108,5
Chimboy	82,4	107,8	2,3	104,8	80,0	107,9
Shumanay	39,7	109,0	0,2	103,3	39,5	109,1
Ellikqal'a	100,0	105,7	3,1	101,1	97,0	105,8

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega tumanlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **174,8 %** ni va **205,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **10,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega tumanlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblariga ko'ra, **1769,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **6,5 %** ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **89,6 %** ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**

Nukus sh.	29,3	70,7
Ellikqal'a	3,1	96,9
Shumanay	0,6	99,4
Chimboy	2,8	97,2
Xo'jayli	2,4	97,6
To'rtko'l	3,8	96,2
Taxtako'pir	0,5	99,5
Taxiatosh	10,3	89,7
Nukus	0,7	99,3
Mo'ynoq	0,8	99,2
Qo'ng'iro't	3,3	96,7
Kegeyli	0,5	99,5
Qorao'zak	0,3	99,7
Qonliko'l	0,4	99,6
Bo'zatov	0,4	99,6
Beruniy	3,7	96,3
Amudaryo	2,9	97,1

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,7 %), Bo'zatov (99,6 %), Qonliko'l (99,6 %) va Taxtako'pir (99,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,4% ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (29,3%), Taxiatosh tumanida (10,3 %), Qo'ng'iro't (3,3 %) va To'rtko'l (3,8%) tumanlarida kuzatildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA AHOLI
JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-mart oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1020,3** ming so'm (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 9,5 % ga o'sdi), Nukus shahri, To'rtko'l, Beruniy, Taxtako'pir, Shumanay, Qorao'zak, Chimboy va Ellikqal'a tumanlari aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.


Aholi jon boshiga ko'rsatkichlarni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Nukus shahri (1755,7 ming so'm), Qorao'zak (1523,0 ming so'm) va Taxtako'pir (1357,5 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 020,3	109,5
Nukus shahri	1 755,7	118,9
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	684,2	103,5
Beruniy	804,9	103,7
Bo'zatov	892,4	104,3
Qonliko'l	1 072,9	103,7
Qorao'zak	1 523,0	104,2
Kegeyli	950,6	104,7
Qo'ng'iro't	1 032,9	105,5
Mo'ynoq	546,7	103,1
Nukus	900,9	105,9
Taxiatosh	673,8	106,3
Taxtako'pir	1 357,5	104,2
To'rtko'l	876,1	113,4
Xo'jayli	1 270,1	107,6
Chimboy	724,6	107,0
Shumanay	698,9	108,3
Ellikqal'a	612,5	103,9

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **203,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **11,8** % ga o'sdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **116,1** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **109,9** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **87,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **114,5** %) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2022- yilning yanvar-mart oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **116,1** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **87,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	203,6	111,8	116,1	109,9	87,5	114,5
Nukus shahri	21,7	92,3	12,4	90,7	9,3	94,5
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	11,1	122,0	6,3	119,9	4,8	124,9
Beruniy	15,4	99,9	8,8	98,2	6,6	102,3
Bo'zatov	5,6	81,7	3,2	80,3	2,4	83,6
Qonliko'l	6,0	102,6	3,4	100,8	2,6	105,0
Qorao'zak	16,4	91,9	9,4	90,3	7,1	94,1
Kegeyli	19,4	94,1	11,1	92,5	8,3	96,4
Qo'ng'iro't	12,2	93,7	6,9	92,1	5,2	96,0
Mo'ynoq	2,5	98,9	1,4	97,2	1,1	101,3
Nukus	10,4	113,1	5,9	111,1	4,5	115,8
Taxiatosh	6,7	198,1	3,8	194,7	2,9	202,8
Taxtako'pir	9,0	102,4	5,1	100,7	3,9	104,9
To'rtko'l	28,8	240,4	16,4	236,2	12,4	246,1
Xo'jayli	11,8	101,2	6,7	99,4	5,1	103,6
Chimboy	14,0	107,5	8,0	105,6	6,0	110,0
Shumanay	5,1	123,5	2,9	121,3	2,2	126,4
Ellikqal'a	7,6	144,3	4,4	141,8	3,3	147,



5,4
mlrd. so'm

Tuzlamalar



48,4
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari



6,7
mlrd. so'm

Qurilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

10,2
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



5,2
mlrd. so'm

Sut va sut
mahsulotlari

6,1
mlrd. so'm



Tuxum

8,2
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

4,1
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar

2,2
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

3,6 mlrd.
so'm



Ziravorlar

3,7 mlrd.
so'm



Tovuq go'shti

2022- yilning yanvar-mart oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **116,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**48,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI


2022- yilning yanvar-mart oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **87,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **71,5** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **18,2** mlrd. so'mni, otlar **2,4** mlrd. so'mni, parrandalar **0,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2022- yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,5 % ni tashkil etib, 49,4 mlrd. so'mga yetdi va 2021-yil yanvar-mart oylarida nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	49,4	104,1	0,1	12,8	49,3	106,1
Nukus shahri	20,7	106,7	0,1		20,6	106,0
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	2,2	108,2	-		2,2	108,2
Beruniy	1,5	107,9	-		1,5	107,9
Bo'zatov	0,1	110,1	-		0,1	110,1
Qonliko'l	0,6	111,7	-		0,6	111,7
Qorao'zak	1,3	104,1	-		1,3	104,1
Kegeyli	0,6	114,8	-		0,6	114,8
Qo'ng'iro't	11,7	96,5	-		11,7	105,2
Mo'ynoq	0,2	110,4	-		0,2	110,4
Nukus	0,5	110,3	-		0,5	110,3
Taxiatosh	1,2	103,8	-		1,2	103,8
Taxtakopir	0,3	120,8	-		0,3	120,8
To'rtko'l	3,0	104,5	-		3,0	104,5
Xo'jayli	2,7	105,4	-		2,7	105,4
Chimboy	1,4	106,1	-		1,4	106,1
Shumanay	0,2	109,9	-		0,2	109,9
Ellikqal'a	1,2	108,3	-		1,2	108,3

2021- yil
yanvar-mart

2022- yil
yanvar-mart



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **49,4** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 104,1 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **49,4** mlrd. so'm nodavlat mulkka (100,0 %) to'g'ri keldi.


	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	49 420,9	100,0	49 420,9	100,0	-	-
Nukus shahri	20 711,6	41,9	20 711,6	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	2 191,4	4,4	2 191,4	100,0	-	-
Beruniy	1 471,5	3,0	1 471,5	100,0	-	-
Bo'zatov	127,1	0,3	127,1	100,0	-	-
Qonliko'l	613,9	1,2	613,9	100,0	-	-
Qorao'zak	1 318,7	2,7	1 318,7	100,0	-	-
Kegeyli	561,4	1,1	561,4	100,0	-	-
Qo'ng'iro't	11 706,6	23,7	11 706,6	100,0	-	-
Mo'ynoq	199,7	0,4	199,7	100,0	-	-
Nukus	459,8	0,9	459,8	100,0	-	-
Taxiatosh	1 188,8	2,4	1 188,8	100,0	-	-
Taxtakopir	336,0	0,7	336,0	100,0	-	-
To'rtko'l	2 998,0	6,1	2 998,0	100,0	-	-
Xo'jayli	2 722,2	5,5	2 722,2	100,0	-	-
Chimboy	1 352,8	2,7	1 352,8	100,0	-	-
Shumanay	235,0	0,5	235,0	100,0	-	-
Ellikqal'a	1 226,5	2,5	1 226,5	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Respublika bo'yicha 2022-yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **410,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **1,7 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **48,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **56,0 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **361,8** mlrd. so'mni (**9,4 %** ga o'sdi) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

410,4 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

48,6 mlrd. so'm, 11,8%

Mikrofirma va kichik korxonalar

361,8 mlrd. so'm, 88,2%

Eng yuqori ulushga ega hududlar



Nukus

To'rtko'l

Taxiatosh


Nukus shahar

**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'ZGARISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Taxiatoş tumanida (100,6 %) Nukus shahrida (25,6 %) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Taxtako'pir (116,7 %), Ellikqal'a (113,0 %), va Chimboy (118,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	410,4	98,3	48,6	56,0	361,8	109,4
Nukus shahri	194,8	89,3	13,1	25,6	181,7	108,9
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	12,7	110,0	-		12,7	111,7
Beruniy	29,0	108,5	-		29,0	108,5
Bo'zatov	0,9	118,2	-		0,9	118,2
Qonliko'l	8,6	107,7	-		8,6	107,7
Qorao'zak	9,4	107,9	-		9,4	107,9
Kegeyli	0,3	106,5	-		0,3	106,5
Qo'ng'iro't	14,8	105,9	-		14,8	105,9
Mo'ynoq	6,0	106,3	-		6,0	106,3
Nukus	21,1	108,5	-		21,1	108,5
Taxiatoş	44,5	101,9	35,5	100,6	9,1	107,3
Taxtako'pir	4,1	116,7	-		4,1	116,7
To'rtko'l	29,2	110,6	-		29,2	110,6
Xo'jayli	7,9	112,3	-		7,9	112,3
Chimboy	8,0	118,9	-		8,0	118,9
Shumanay	0,2	107,0	0,0		0,2	107,7
Ellikqal'a	19,0	113,0	-		19,0	113,0

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



QR Nukus shahri Amudaryo Beruniy Bo'zatov Qonliko'l Qorao'zak Kegeyli Qo'ng'iro't Mo'ynoq Nukus Taxiatosh Taxtako'pir To'rtko'l Xo'jayli Chimboy Shumanay Ellikqal'a





Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, **361,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **109,4%** ni tashkil etdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **88,2%** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Kegeyli, Qo'ng'iro't, Qonliko'l va Ellikqal'a tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Taxiatosh (20,4%) tumaniga to'g'ri keldi.



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'ri pasayib bormoqda. 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **410,4** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **410,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.